Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеъриятида психологик тасвир маҳорати. Тошкент. “Фан”, 2004, 178-бет.

(2). Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2006, 110-бет.

(3). Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат (60–80-йиллар). Фил. фанл. номз. Автореферати, Тошкент, 2001, 10-бет.

(4). Қуронов Д., З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, “Akademnashr”, 2013, 352-бет.

(5). Норматов У. Ёниб, ўзгаларни уйғотмоқ не бахт. Сўнг сўз. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. Сайланма. Тошкент, “Адабиёт ва санъат”, 1994, 372-бет.

(6). Панаева У. Ҳозирги ўзбек шеъриятида тарихийлик концепцияси (Омон Матжон ижоди мисолида). Филол. фанлари номзоди ... дисс., Тошкент, 2005, 33-бет.

Nazarova Dilafruz Ixtiyorovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchi; ndilafruz476@gmail.com)

“MIFTOH UL-ADL” ASARINING MATNIY TADQIQI VA TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘z davrining yetuk ijodkori Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja)ning “Miftoh ul-adl” asarining 4656-D qo‘lyozma nusxasi haqida ma’lumot beriladi. Ushbu qo‘lyozma Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondining dublet fondida saqlanmoqda. Bugungi kunga qadar Xoja asarlarining bironta qo‘lyozmasi to‘liq holatda nashr etilmagan. Mazkur asar Sharq mumtoz adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadigan hikoyat janrining XVI asrdagi taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada “Miftoh ul-adl” asarining matniy tadqiqi va tahlili amalga oshiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xoja, hikoyat, “Miftoh ul-adl”, qo‘lyozma manbalar, mumtoz, adabiyot, oyat, hadis, an’ana, tadqiq.*

Назарова Дилафруз Ихтиёровна (старший преподаватель кафедры Узбекского языка и литературы Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; ndilafruz476@gmail.com)

ТЕКСТОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “МИФТАХ УЛЬ-АДЛЬ”

Аннотация. *В этой статье представлена информация о рукописном экземпляре 4656-D произведения “Мифтах уль-Адль” ведущего творца своего времени Ибадуллы Сайида Шахходжа ибн Абдулваххабходжа (Ходжа). Эта рукопись хранится в дублетном фонде рукописей Института Востоковедения имени Абу Райхана Беруни. На сегодняшний день ни одна рукопись произведений Ходжи не опубликована в полном виде. Это произведение сыграло важную роль в определении развития в XVI веке жанра повествования, который занимает особое место в классической восточной литературе. В этой статье будет проведено текстовое исследование и анализ произведения “Мифтах уль-адль”.*

Ключевые слова: *Ходжа, хикаят, “Мифтах уль-адль”, рукописные источники, классика, литература, аят, хадис, традиция, исследовать.*

Nazarova Dilafruz Ikhtiyorovna (Senior Lecturer, Department of “Uzbek Language and Literature”, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature: ndilafruz476@gmail.com)

TEXTUAL RESEARCH AND ANALYSIS OF THE WORK “MIFTOH UL-ADL”

Annotation. *This article provides information about the manuscript copy 4656-D of the work “Miftoh ul-adl” by the outstanding writer of his time, Ibadulla Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahhobxoja (Xoja). This manuscript is stored in the duplicate fund of the manuscript fund of the Abu Rayhon Beruni Institute of Oriental Studies. To date, no manuscript of Xoja’s works has been published in full. This work is of great importance in determining the development of the genre of the story, which occupies a unique place in the classical literature of the East, in the 16th century. This article presents a textual study and analysis of the work “Miftah ul-adl”.*

Keywords*: Xoja, story, “Miftoh ul-adl”, and manuscript sources, classic, literature, verse, hadith, tradition.*

Kirish (Introduction). Ko‘hna tarix tamaddunida o‘zbek xalqi o‘zining boy tarixi, buyuk ma’naviy merosi, an’analari bilan alohida o‘rin tutadi. O‘zbek mumtoz adabiyoti asrlar davomida sayqallanib, mavzu-mundarijasi boyib kelgan. Adabiyotimiz namoyandalari orasida o‘zbek mumtoz adabiyoti xazinasiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja Xojadir. Podshohxoja o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning “Miftoh ul-adl”, “Gulzor”

va “Madsad ul-atvor” asarlari adabiyotimiz tarixida muhim adabiy-badiiy manba sifatida o‘rin olgan. Mazkur asarlarning mohiyati, ilmiy, adabiy va badiiy qiymatini to‘la yoritish uchun asl manba (qo‘lyozma)lar bilan ishlash muhim ilmiy ahamiyatga ega. Xoja asarlarining qo‘lyozma nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” nomlari bilan saqlanadi. Xoja asarlarining 885, 1791, 7731, 7788, 7796, 9161 hamda 4656-D inventar raqamli qo‘lyozma nusxalari mavjud. Bu qo‘lyozmalar ko‘chirilgan yili, hajmi, o‘lchami bilan bir-biridan farq qiladi.

– 885, 1791 inventar raqamli qo‘lyozmalarda “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari bir kitob qilib muqovalangan;

– 7796, 4656-D inv. raqamli qo‘lyozmada “Miftoh ul-adl” asarining o‘zi berilgan;

– 7731, 7788, 9161 inventar raqamli qo‘lyozmalarda esa faqat “Gulzor” asari berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asrning 30-yillaridan boshlab Xojaning hayoti va faoliyati, ijodiga oid ko‘plab ishlar e’lon qilingan. Dastlabki ma’lumotlar Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” (Toshkent–Samarqand, 1928) kitobida yoritiladi. Unda “Miftoh ul-adl” asari muallifi noma’lum bo‘lib, XIV asr yodgorligi sifatida ko‘rsatilgan. Hikoyatlaridan namunalar keltiradi (8 ta hikoyatini). So‘ngra asar muallifi masalasini V.Zohidov ilmiy asoslab beradi [6;100–132-b.]. Ya’ni, “Miftoh ul-adl” asarining muqaddimasida bu asar “shahzoda Temurbek”ka bag‘ishlanganligi aytilgan. V. Zohidov esa ishni “Shahzoda Temurbek kim?” ekanligini qidirishdan boshlaydi. XIV asrda Temur nomli ikki siyosiy arbob yashaganligini, biri To‘qlug‘ Temur, yana biri Amir Temur. XV asrda “shahzoda Temurbek” degan kishi bo‘lmaganligini aytadi. Bunday shaxs XVI asrda bo‘lganligi va bu Shayboniyxonning o‘g‘li Muhammad Temur Sultondir. Ibodulla Sayyid Podshohxoja ibn Abdulvahhobxoja – Xoja nazarda tutgan kishi mana shu Temurdir, degan xulosaga keladi [6;100–101-b.]. Uning ilmiy xulosasi ilmiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi. Xoja ijodini tadqiq etgan olima Marg‘uba Mirzaahmedova o‘z tadqiqotida Fitratning darsligiga kiritilgan hikoyatlar Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 1791 inventar raqamli qo‘lyozmaga to‘g‘ri kelishiga aniqlik kiritadi va uning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining jami 7ta qo‘lyozmalari mavjudligini sanab o‘tadi. 1962-yilda esa professor V.Zohidov va S.G‘aniyeva tomonidan “Podshoshoxoja “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”-dan” namunalarni nashr ettiradi [2;3–56-b.]. Bu nashr ishi Xoja ijodiga va uning asarlariga ilmiy e’tiborning oshishiga sabab bo‘ldi.

“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1965-yil to‘rtinchi sonida A.Ibrohimovning “Xoja hayoti va ijodi haqida ba’zi ma’lumotlar” mavzusidagi maqolasi e’lon qilinadi. Unda Xoja hayoti va faoliyatiga oid fikrlarga aniqlik kiritib, tug‘ilgan yilini, Hasanxoja Nisoriyning otasi ekanligini, Xoja hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan ayrim noaniqlik va kamchiliklarni qator dalillar asosida isbot qiladi. Bu maqola shu jihatdan ham ahamiyatlidir.

Xoja ijodini o‘rganishni Fitrat boshlab berhan bo‘lsa, S.Qosimov, I.Ahmedov, V.Abdullayev, V. Zohidov, S.Ganiyeva, N.Mallayev, B.Ahmedov, Q.Munirov, M.Mirzaahmedova, G.Aliyev, I.Bekjonov, A.Tohirjonovlar davom ettirdilar. Keyingi yillarda maktab va oliy ta’lim muassasalari darslik, o‘quv qo‘llanmalaridagi ma’lumotlar, asosan, M.Mirzaahmedova tadqiqotidan, V.Zohidov va S.G‘aniyeva nashr ishidan hamda yuqorida tilga olingan olimlarimiz ishlaridan foydalanilgan. Xullas, XIV asr yodgorligi sifatida qaralgan “Miftoh ul-adl” asari XVI asr namunasi ekanligi ochiqlandi. Keyingi yillarda ham Xoja ijodiga e’tibor kuchaysa kuchaydiki, susaygani yo‘q. Xojaning falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlari S.G‘oziyev tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa [9;116-b.], til xususiyati jihatidan 2012-yilda turkiyalik olima professor Tanju Seyhan Xojaning “Miftoh ul-adl” asarining til xususiyatlarini (qiyosiy tilshunoslik) nuqtayi nazardan o‘rgangan [7;219-b.]. Bugungi kunda ham Xoja ijodiga qiziqish kamaygani yo‘q. Asarlarni o‘rganish va tadqiq etish davom etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ko‘rinib turibdiki, Xoja ijodi asrlar osha bugungi kunda ham o‘z ahamiyati yo‘qotmagan. Ko‘lab olimlarimiz izlanishlari va o‘rganishlariga qaramay, adib asarlarining to‘la tabdil varianti nashrga tayyorlanmagan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Xoja asarlarining 7 ta qo‘lyozmasidan biri haqida ma’lumot bermoqchimiz. Bu 4656-D inv. raqamli qo‘lyozma. Qayd etilgan qo‘lyozmalar orasida faqat shu inventar raqamli qo‘lyozmaning muallifi aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, qolgan qo‘lyozmalarning ko‘chiruvchi-(kotib)lari noma’lumdir.

4656-D inv. raqamli qo‘lyozmaning yozilgan yili, qayerda yozilganligi noma’lum. Ko‘chiruvchisi Mulla Ro‘zi Muhammad bin Bobojon. O‘zbek tilida. Kitob formati 18x11, matn hajmi 14x8. Qo‘lyozma 210 sahifadan iborat bo‘lib, 9 satrdan o‘rtacha nasta’liq xatida qora tush bilan yozilgan. Qo‘lyozmaning yuza qismidagi muqovasi tushib qolgan, oxiri saqlangan. Qolgan muqovadan bilish mumkinki, jigarrang

qalin karton qog‘oz, atrofi charmlangan, yuzidagi sahifasi yirtilgan. 1-86-betlariga diniy ma’lumotlar, 87[a] sahifasidan “Miftoh ul-adl” asari bitilgan. Qo‘iyozmaning 1–64-sahifalari oq rangda, 65–80-sahifalari qaymoq rangda, 81–86-betlari ko‘k rangda, 87–136-varaqlari qaymoq rangda, 137–142-sahifalari pushti rangda, 143–149-betlari zangori rangda, 150–159, 164–165-sahifalari binafsha rangda, 16–173-betlari nim pushti rangda, 174–181-varaqlari sariq rangda, 182–207-betlari qaymoq rangdagi rangbarang qog‘ozlarga yozilgan. “Miftoh ul-adl” asari boshlanadigan 87[a]ning yuqori qismiga ملل روزی محمد بن باباجان deyilgan. Shunga ko‘ra, qo‘lyozmani ko‘chiruvchi kotib Mullo Ro‘zi Muhammad bin Bobojon deyish mumkin. “Miftoh ul-adl” asarining ushbu qo‘lyozma nusxasi fors-tojik tilidagi she’riy parcha bilan boshlangan:

دل بدست اور که حجئ اکبر است

از هزاران کعبه یکدل بهتر است [1; 87[a]-b.]

O‘qilishi:

Dil ba dast ovar, ki hajji akbar ast,

Az hazoron Ka’ba yak dil behtar ast.

Mazmuni:

Ko‘ngilni qo‘lga kirit(ovla)gilkim, buyuk Haj shudir,

Minglab Ka’badan bir dil yaxshiroq.

“Miftoh ul-adl”ning 4656-D inv. raqamli qo‘lyozmasi yuqoridagi she’riy parchadan so‘ng, “Bismillahir rahmonir rohiym” bilan boshlanib, Allohga hamd keltiriladi. So‘ngra bu kitobni nima uchun “jam” qilganligini, kimga bag‘ishlagani va sultonlarga, beklarga, ulug‘larga xizmat qilmoq uch turli bo‘lib, ular: a) tan xizmati; b) til xizmati; d) ko‘ngil xizmatidir. Bu uch xizmatni sharhlab, keyin “Miftoh ul-adl” asari boblari xususida to‘xtaladi. Har bir bob nomlangan:

Avvalg‘i bob: Olimlarni bayon qilur.

Ikkinchi bob: Adl sultonlarni bayon qilur.

Uchinchi bob: Zolimlarni bayon qilur.

To‘rtinchi bob: Sultonlarg‘a mute’ bo‘lmoqni bayon qilur.

Beshinchi bob: Sultonlarg‘a, vazirlarg‘a mashvaratning bayoni.

Oltinchi bob: Hukm qilmoqning bayoni.

Yettinchi bob: Da’voning bayoni.

Sakkizinchi bob: Ont ichmakning bayoni.

To‘qqizinchi bob: o‘g‘riliqning bayoni.

O‘ninchi bob: Zino haddining bayoni.

O‘n birinchi bob: (قزف) quzf haddining bayoni.

O‘n ikkinchi bob: shurb haddining bayoni.

O‘n uchinchi bob: ta’zir qilmoqning bayoni.

O‘n to‘rtinchi bob: g‘azot qilmoq bayoni.

O‘n beshinchi bob: sayd qilmoqning bayoni.

Asar boblaridan ko‘rinib turibdiki, u o‘zida ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-ta’limiy masalalarni mujassamlashtirgan. Har bir bobda Qur’on oyatlari, suralar, hadislar arab tilida berilgan, so‘ngra ma’nosi izohlanib, ularni tasdiqlaydigan biror voqeani hikoya qilib, nazir hikoyatlar keltiradi va muallifning xulosasi bilan yakunlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Birinchi bobi “Bilmon olimlarning fazilati Tangri taoloning nazdida ulug‘ turur. Nechuk haq taolo har onda yod qilib turur” bilan boshlanadi. Oyat, hadis va ijodkorning shaxsiy fikr-mulohazalari sharhlanganidan so‘ng “Imomi A’zam” haqidagi dastlabki hikoyati keltiriladi. Keyin “Tolibi ilm”, “Iso alayhissalom”, “Imomi A’zam Abu Hanifayi Kufiy va Shayboniy”, “Imomi A’zam Abu Hanifayi Kufiy va bir kishi” deb nomlangan hikoyatlari keltiriladi. Birinchi bobda 5 ta hikoyat o‘rin olgan bo‘lib, 89[b] sahifadan 111[a] sahifagacha qamrab olingan. Birinchi bobning xulosasi sifatida muallif shunday fikrlarni bildiradi: “Qaysi omi kishi olim kishidan yuqori o‘ltursa, go‘yo Qur’on ustunda o‘lturg‘ondek bo‘lg‘oy. Qur’on ustunda o‘lturg‘onning gunohi bemiqdor bo‘lsa, ul kishining guhohi shul miqdor bo‘lg‘oy. Va yana kim olimlarg‘a ozor bersa, shol bo‘lur” [1;111[a]-b.]. Ikkinchi bob Qur’on oyati bilan boshlanadi. So‘ng oyat ma’nosi izohlanadi. “Bir odam yana bir odamg‘a o‘zini baland tutib, bir ish buyursa, oni amr derlar. Agar o‘zini past tutib buyursa, oni tazarru derlar. Va yana birda amr bo‘lsa, holi bo‘lmas. Tangri taolodin bo‘lg‘ay. Ya’ni har kim Alloh buyruqin tutsa, Alloh taolo ul kishiga bu dunyoda ne tilasa, tilakin bergay. Uch toifaning duosi Alloh taolo nazdida zoye bo‘lmas, qabul bo‘lur. Avval adl sultonlarning, ikkinchi mazlumlarning, uchinchi ro‘zadorlarning. Ro‘za ocharda har ne tilasa, qabul bo‘lur va hamma duosi ijobat bo‘lur. Bunga nazir hikoyat bu turur” [1;112[a]-b.] deb “Dovud alayhissalom va boshiga

un qo‘ygan ayol” hikoyati beriladi. Undan keyin “Umar roziyallohu anhu va qush bo‘yniga ip taqayotgan bola”, “Qoshqar sultoni Hindiston sultonig‘a elchi yuborgani”, “Haj qilmoqni istagan shoh”, “Muhammad s.a.v me’roj kechasi haqida”gi hikoyatlar keltiriladi. Bu bob “Adl sultonlarni bayon qilur” deb nomlangani bois, Podshohxoja shohlar, sultonlar, beklar adli, adolati tufayli shularga erishadi deb, quyidagilarni bayon etadi:

– Alloh taolo rahm qilg‘onlarg‘a rahm qilur, har kimsa yer yuzindaki odamlarg‘a rahm qilsa, ko‘kdagi farishtalar ul rahm qilg‘on kishini Tangri taolodin “yorliqo” deb tilogoylar.

– Adl sultonlar va beklarda jon ochig‘i bo‘lmog‘oy, o‘lar vaqtida farishtalar behishtdin bir toboq meva olib kelgaylar, ular ul mevaning xushbo‘yliqidin jon bergoylar, jon bergonin bilmogoy va tuymog‘oylar;

– Dunyodin iymon birla borg‘aylar.

– Go‘r azobin tortmog‘oylar.

– Qiyomat kuni andog‘ issiq bo‘lg‘aykim, adl sultonlar va adl beklar Alloh taolo arshining soyasida bo‘lg‘ay.

– Adl podshoh va adl beklarning bir soat qilg‘on adlining savobi boshqalarning 70 yil qilg‘on ibodatidin ortuq bo‘lg‘oy.

– Adl sultonlar va adl beklar o‘lsalar, qiyomat kuni do‘zah o‘tig‘a kuymog‘ay.

– Adl sultonlar sirotdin bildurumdek بیلدورومدیک o‘tg‘oylar.

– Adl sultonlar va adl beklar adlidin behisht ichinda bir dona injudin bir ko‘shk bino qilg‘oylar.

– Qiyomat kuni adl sultonlar va adl beklar musulmon bo‘lsalar, Alloh taolo diydorini ko‘rgoylar [1;120^{a}–126^{a}-b.].

Ikkinchi bobda ham 5ta hikoyat keltirilgan bo‘lib, bu bob 111^{b} sahifadan 126^{a} sahifani o‘z ichiga oladi. Uchinchi bob “Zolim sulton va zolim beklarning bayoni” bo‘lganligi bois, bu bobni ijodkor “Emdi bilmak kerak, har kim sulton yo bek bo‘lib, adl qilmoyin zulm qilsa, avval, bu dunyoda balog‘a giriftor bo‘lur. Qiyomat kuni yuzi qora bo‘lg‘oy. Payg‘ambar alayhissalom oydilar: Alloh taolo osmonni uch nimarsa birlan ziynat berib turur. Avval kun birla, ikkinchi oy birla, uchinchi yulduz birla va yana uch nimarsa bilan yerni ziynat berib turur. Avval yamg‘ur, ikkinchi olimlarning adli birla, uchinchi sultonlarning adli. Adl bor joyda yamg‘ur yog‘ar, ilm o‘rganurlar. Va yana har yerda zolim sultonlar, zolim beklar bo‘lsa, alar zulmi sababidin yamg‘ur yog‘mas, xaloyiqlar najotda bo‘lur. Ilm ham o‘rganib bo‘lmas. Va yana aytib tururlarkim, har kim sulton yo bek bo‘lib, zulm qilsa, Alloh taolo ul kishiga er o‘g‘ul bermog‘oy va agar bersa dunyodin tez borg‘oy, atosining o‘rnin tutmog‘oy. Yo devona, yo aybli bo‘lg‘oy” [1;126^{b}–129^{a}-b.] deb, bunga nazir hikoyat qilib, “Sulaymon s.a.v.ning Allohdan farzand tilagani” haqidagi hikoyatni keltiradi. So‘ngra Xoja “Emdi bilmak kerakki, har kim sulton yo bek bo‘lib, pora olsa, haq ishin nohaq qilsa, oning ahvoli qiyomat kuni jon achchig‘i qattiq bo‘lg‘ay” deb “Muso alayhissalom va suv”, “Ali r.a.ning tushi”, “Shaytonning Alloh amri bilan Fir’avn yoniga borishi”, “Nuh alayhissalom va teshilgan kema”, “Umar r.a. ning kecha-kunduz uxlamagani”, “Umar r.a.ning Shomga borgani”, “Tavis Yaman r.a.”, “Luqmoni hakim va xo‘jasi” kabi hikoyatlarni keltiradi.

Uchinchi bobda 10 ta hikoyat berilgan bo‘lib, ular 126^{b}–148^{b} sahifadan o‘rin olgan.

To‘rtinchi bob “Sultonlar, beklar va vazirlar birla mashvarat qilmoq bayoni” deb nomlangan bo‘lib, bu bob “Bir ishni qilmoqchi bo‘lsang, bir-biringiz birla mashvarat qiling. Mashvaratdin so‘ng Alloh taolog‘a tavakkul qiling” [1;148^{a}-b.] bilan boshlanib, bunga nazir hikoyat sifatida “Sulaymon payg‘ambar va uning duosi” hikoyati keltiriladi. Ortidan qolgan 8 hikoyat ham ketma-ketlikda beriladi. Ular: “Sulton Mahmud va vaziri”, “Sulton Mahmud G‘aznaviy va Ayozi xos”, “Husrav shoh va vazirining xotini”, “Bir podshohning go‘zal ayollarga o‘chligi”, “Bir ayolning go‘zal yuzli o‘g‘li haqida”, “Sulton va uning vaziri”.

To‘rtinchi bobda 9 ta hikoyat o‘rin olgan. 148^{b} sahifadan 170^{a} sahifani qamrab oladi.

Beshinchi bob “Sultonlarg‘a mute’ bo‘lmoqning bayoni” deb nomlangan bo‘lib, Qur’ondan oyat keltiriladi va sharhlanadi. Ortidan “Dovud alayhissalom va ikki kishi” haqidagi hikoyatni va qolgan 4ta hikoyatlarni ham beradi. “Iskandar Zulqarnayn va Mag‘rib sultoni”, “Iskandar Zulqarnayn va Doro”, “Horun ar-Rashidning o‘g‘li Ma’mun va o‘gay onasi Zubayda”, “Shahid bo‘lgan Husayn r.a.”. Bu bobda 5 ta hikoyat joy olgan. 170^{a} sahifadan 180^{a} sahifagacha.

Oltinchi bob “Hukm qilmoqning bayoninda turur” nomi ostida 5 ta hikoyat berilgan. “Horun ar-Rashidning o‘g‘li Ma’mun va uning kechalari shaharni kezishi”, “Amiral mo‘minin Ali va bir kishi”, “Bahrom Go‘r va uning vaziri Rostravshan”, “Anushirvoni odil...”, “Sulton Mahmud G‘aznaviy va tolibi ilm” hikoyati bilan yakunlanadi. Oltinchi bob 180^{b}–190^{a} sahifagacha. Yettinchi bobdan o‘n beshinchi bobgacha (190^{b}–210^{b} sahifagacha) Podshohxoja mavzularga oid oyat va hadislardan namunalar keltirib, ularni sharhlagan. Davr ruhidan kelib chiqib, ommani insoniylikka, adolatga, poklikka chaqirgan. Bu chaqiriqlar bu-

gungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu qo‘lyozma juda ixcham, bezaklarsiz ko‘chirilgan. Kitobning oxirida “in kitob ro‘zi dushanba tamom” bilan tugallangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bizga ma’lum bo‘lgan “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining 7 ta qo‘lyozma nusxalari asosida asarning tanqidiy matnini yaratish mumkin. 1962-yili “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan parchalar alohida chop etildi (V.Zohidov va S.G‘aniyevalar nashrga tayyorlagan) [2;56-b.]. Xojaning har ikkala asari yuzasidan to‘liq nashr ishlari bugungu kungacha amalga oshirilmagan.

M.Mirzaahmedova esa Xoja hayoti va ijodini o‘rganib, uning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining o‘zimizdagi 7ta, SSSR Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari institutining Leningrad bo‘limi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan V-2188 inventar raqamli qo‘lyozmadan va P.Shamsiyevning shaxsiy arxivida saq-langan qo‘lyozmadan ham foydalanganligini ta’kidlaydi va bu qo‘lyozmalarning barchasi XVIII, XIX, XX asr mahsuli ekanligini qayd etadi [3;36–44-b.].

Shunday qilib, Xoja asarlarining qo‘lyozma nusxalarining biri haqidagi ma’lumotlarimiz, uning o‘z davrida va keyingi davrlarda nasriy hikoyat ustasi sifatida shuhrat qozonganligi hamda ommaning e’ti-borida bo‘lganligidan dalolat beradi. Bunga uning asarlari turli davrlarda kotiblar tomonidan qayta-qayta ko‘-chirilgani yorqin misoldir. Bu qo‘lyozma nusxalarni qiyosiy-ilmiy tadqiq etish galdagi vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). “Miftoh ul-adl”ning qo‘lyozma nusxasi. Inv № Д-4656, 210-varaq.

(2). Пошшохўжа. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор”дан. Т., Ўздавнашр, 1962, 56-бет.

(3). Мирзааҳмедова М. Хожа. Т., “Фан”, 1975, 130-бет.

(4). Мирзааҳмедова М. Пошшохожа ва унинг “Мифтоҳ ул-адл” ҳамда “Гулзор” асарлари. Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент, 1966, 218-бет.

(5). Тоҳиржонов А. Хожанинг янги топилган асари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1975, 3-сон, 70–73-бет-лар.

(6). Воҳидов З. Ўзбек адабиёти тарихидан. Т., “Ўзадабийнашр”, 1961. 265-бет.

(7). Doç. Dr. Tanju Oral Seyhan. Pādişāh Ĥōca külliyâtı: Miftāhü’l-adl. Kesit yayinlari. Istanbul, 2012, s. 219.

(8). Иброҳимов А. Хожа ҳаёти ва ижоди ҳақида баъзи маълумотлар.“Ўзбек тили ва адабиёти”, 4-сон, Т., 1965.

(9). Ғозиев С. Подшохожа қарашларида ижтимоий ахлоқ масаласи. Илмий рисола. Т., А.Қодирий но-мидаги “Халқ мероси” нашриёти, 1999, 116-бет.

Muxammedova Xulkar Eliboyevna (filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti; xulkarmuxammedova@gmail.com)

YOHANNA SHPIRI IJODIDA BOLALAR OBRAZI

Annotatsiya. *Bolalar adabiyoti namunalarini bolalar dunyosi misolida ochib berishda olmon adiba-si Yohanna Shpiri ijodini misol qiib keltirish mumkin. Yohanna Shpiri shveysariyalik adiba bolalar obraz-larini asar kontekstida ochib berar ekan ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham ko‘rsatib bergan.*

Kalit so‘zlar: *bolalar, adabiyot, asar, obraz, sujet, tabiat, adiba.*

Мухаммедова Хулкар (доктор филологических наук (DSc) доцент, Узбекистанский государственный университет мировых языков; xulkarmuxammedova@gmail.com)

ОБРАЗ ДЕТЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ ЙОХАННЫ СПИРИ

Аннотация. *Раскрывая образы детской литературы на примере мира детей, можно привес-ти творчество немецкой писательницы Йоханны Спири. Швейцарская писательница Йоханна Спи-ри раскрывает образы детей в контексте своего произведения, показывая также их особенности.*

Ключевые слова: *дети, литература, роман, образ, сюжет, природа, писательница.*

Mukhammedova Khulkar (Doctor of philology (DSc) associate professor Uzbekistan state world Languages University; xulkarmuxammedova@gmail.com)

CHILDREN CHARACTER IN JOHANNA SPYRI’S NOVELS

Annotation. *Revealing the images of children’s literature using the world of children as an example, we can cite the work of the Swiss writer Johanna Spyri. Swiss writer Johanna Spyri reveals the images of children in the context of her work, also showing their characteristics.*

Key words: *children, literature, novel, character, plot, nature, female writer.*

Kirish. Bolalar adabiyotiga xos bo‘lgan asar kichik yoshdagi kitobxonlarning yosh xususiyatlariga, ularning saviyasiga xos, yoqin obrazlarga hamda soda va qiziqarli tarzda ifoda etilishi talab etiladi. Bunday